

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 165 sahifa.
2026-yil, mart*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti




MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBI: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI.....	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	



QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Yuldashova Nilufar Ziyabayevna

SamISI katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: yuldashovan04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali qishloq aholisi turmush darajasini yuksaltirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish tizimi samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari, mavjud imkoniyatlar va rivojlanish omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ushbu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, ijtimoiy samaradorlik, qishloq hududlari, xizmat ko'rsatish tizimi, infratuzilma, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, bandlik.

Abstract. This scientific article analyzes the economic and social significance of improving the efficiency of service provision in rural areas. The study examines ways to enhance the living standards of the rural population, create new employment opportunities, and promote regional economic development through the expansion of the service sector. In addition, the paper identifies key directions for improving the efficiency of the service system and presents scientifically grounded proposals and recommendations aimed at strengthening the development of rural service infrastructure.

Keywords: service sector, social efficiency, rural areas, service system, infrastructure, entrepreneurship, economic development, employment.

Аннотация. В данной научной статье анализируется экономическая и социальная значимость повышения эффективности оказания услуг в сельской местности. Рассматриваются вопросы повышения уровня жизни сельского населения, создания новых рабочих мест и обеспечения устойчивого регионального экономического развития за счет развития сектора услуг. Кроме того, в работе представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по основным направлениям совершенствования системы оказания услуг, а также рассмотрены перспективные возможности развития данной сферы.

Ключевые слова: сфера услуг, социальная эффективность, сельская местность, система обслуживания, инфраструктура, предпринимательство, экономическое развитие, занятость.

KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda xizmatlar sohasining o'rni tobora ortib bormoqda. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining turmush darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismi aynan xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli xizmatlar sektorini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.



Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar tarmog'ini kengaytirish, zamonaviy xizmat turlarini joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq hududlarida yashovchi aholi mamlakat umumiy aholisining muhim qismini tashkil etadi. Shu bois qishloq joylarda xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tizimi transport, savdo, aloqa, maishiy xizmatlar, turizm, bank-moliya xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ko'plab xizmat turlarini qamrab oladi. Mazkur xizmatlarning samarali tashkil etilishi qishloq aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga ham xizmat qiladi. Xizmatlar sektorining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholining daromad manbalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy va institutsional jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hududlarda investitsiya faoliyatini faollashtirish va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy jihatdan dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda samarali iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali ushbu sohaning rivojlanish istiqbollarini kengaytirish mumkin.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, ushbu sohaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda xizmatlar sektorining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida xizmatlar sohasining qishloq hududlaridagi rivojlanish holatini o'rganish hamda uning samaradorligini baholash maqsadida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tadqiqotda grafik tahlil, statistik tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy yondashuv, analiz va sintez usullari qo'llanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy rivojlanish, hududiy siyosat hamda xizmatlar iqtisodiyoti yo'nalishida ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda xalqaro tashkilotlar hamda iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sish, aholi bandligi va hududiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi [1]. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlari kengayishi ta'kidlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD) tadqiqotlarida ham xizmatlar sektori global iqtisodiy tizimda muhim o'rin tutishi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishini qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [2].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan e'lon qilingan ilmiy hisobotlarda qishloq hududlarining barqaror rivojlanishida xizmatlar sektorining o'zni alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq hududlarida transport, turizm, savdo, moliyaviy xizmatlar hamda raqamli xizmatlarning rivojlanishi hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi va aholi bandligini kengaytirishga xizmat qiladi [3].

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xizmatlar sektorining rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tadqiqotlarda qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish mumkinligi alohida qayd etiladi [4].

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning muhim qismini tashkil etib, so'nggi yillarda ushbu sohaning ulushi izchil oshib bormoqda. Bu esa xizmatlar sektorining milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi [5].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish, ayniqsa qishloq hududlarida zamonaviy xizmat turlarini keng joriy etish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan [6].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektorini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi bandligini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sektori iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim o'rin egallab, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiy faollikni oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar tarmog'ining rivojlanishi hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Avvalo, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda infratuzilmaning rivojlanganligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy infratuzilma, jumladan transport yo'llari, aloqa tizimlari, internet tarmoqlari hamda kommunal xizmatlarning rivojlanganligi xizmat ko'rsatish jarayonining samarali tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qishloq hududlarida yo'l va transport infratuzilmasining rivojlanishi savdo, logistika, turizm va boshqa xizmat turlarining kengayishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi elektron savdo, masofaviy xizmatlar hamda raqamli xizmatlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchi muhim omil sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini ko'rsatish mumkin. Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish faoliyati asosan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, transport xizmatlari, turizm hamda boshqa xizmat turlarining rivojlanishi hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli qishloq hududlarida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, soliq rag'batlari yaratish hamda investitsiyalarni jalb qilish xizmatlar sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi muhim omil sifatida xizmat ko'rsatish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini ko'rsatish mumkin. Raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish jarayonining samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, elektron to'lov tizimlari, onlayn savdo platformalari hamda mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish mumkin. Bu esa nafaqat xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, balki xizmatlar sifati va qulayligini ham yaxshilaydi.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shu bois xizmatlar sektorida faoliyat yuritayotgan kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish hamda mutaxassislarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat ham muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan xizmatlar sektorini qo'llab-quvvatlash, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan investitsion loyihalarni amalga oshirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish sifatida qishloq turizmini rivojlantirish orqali xizmatlar sektorining samaradorligini oshirish mumkin. Qishloq hududlarida turizm xizmatlarini rivojlantirish mehmonxona, transport, savdo, umumiy ovqatlanish hamda madaniy xizmatlar kabi ko'plab xizmat turlarining rivojlanishiga turtki beradi. Bu esa hududiy iqtisodiy faollikni oshirib, mahalliy aholi uchun yangi daromad manbalarini shakllantiradi.

Umuman olganda, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa o'z navbatida qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga, aholi farovonligini oshirishga hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda aholi farovonligini oshirishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat aholi ehtiyojlarini qondirish, balki hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish jarayonining sifatli va tezkor tashkil etilishini ta'minlash muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash xizmatlar sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish xizmatlar sifatini oshirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. To'rtinchidan, xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning kasbiy malakasini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Beshinchidan, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, investitsiya dasturlari va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, qishloq turizmi, sog'liqni saqlash, ta'lim, savdo va transport xizmatlarini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda hududlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, xizmatlar sektorining rivojlanishi qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga, aholining turmush darajasini yaxshilashga, yangi ish o'rinlarini yaratishga hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks yondashuvni qo'llash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlik va davlat siyosatini o'zaro uyg'un holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimizda qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash hamda xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC: World Bank, 2022. Available at: <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2022>
2. UNCTAD. Trade and Development Report 2023. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2023. Available at: <https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2023>
3. OECD. Rural Well-being: Geography of Opportunities. – Paris: OECD Publishing, 2020. Available at: <https://www.oecd.org/regional/rural-well-being-geography-of-opportunities.htm>
4. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2021. – Manila: Asian Development Bank, 2021. Available at: <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2021>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xizmatlar sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services>
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy rivojlanish va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar. Available at: <https://mineconomy.uz/uz/info/312>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100